



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

BADIIY MATNDA IQTIBOSNING INTERTEKSTUAL VA LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Yuldasheva Maftunaxon Azizjon qizi
Fargʻona davlat universiteti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada iqtibosning intertekstual vosita sifatidagi lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda iqtibos tushunchasining adabiyotshunoslik va lingvistikadagi talqinlari yoritilib, uning matnlararo dialogni yuzaga keltirishdagi oʻrni ochib beriladi. Shuningdek, oʻzbek va ingliz adabiyotidan olingan misollar asosida iqtibosning semantik hamda estetik funksiyalari tadqiq etiladi. Tadqiqot natijasida iqtibos badiiy matnning mazmuniy qatlamini boyituvchi va madaniy xotirani aks ettiruvchi muhim intertekstual birlik ekanligi asoslanadi.

Kalit soʻzlar: iqtibos, intertekstuallik, badiiy matn, dialogiklik, intertekstual aloqa, semantika.

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЦИТАТЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Юлдашева Мафтунахон Азижон кизи
Ферганский государственный университет, базовый докторант

Аннотация

В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности цитаты как интертекстуального средства. Рассматриваются различные трактовки понятия цитаты в литературоведении и в лингвистике, а также раскрывается её роль в формировании межтекстового диалога. На примерах из узбекской и английской литературы исследуются семантические и эстетические функции цитаты. В результате исследования обосновывается, что цитата является важной интертекстуальной единицей, обогащающей смысловой слой художественного текста и отражающей культурную память.

Ключевые слова: цитата, интертекстуальность, художественный текст, диалогичность, интертекстуальная связь, семантика..

INTERTEXTUAL AND LINGUOPOETIC FEATURES OF QUOTATION IN LITERARY TEXTS

Yuldasheva Maftunaxon Azizjon qizi
Fergana State University, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the linguopoetic features of quotation as an intertextual device. It examines different interpretations of the concept of quotation in literary studies and linguistics, highlighting its role in creating intertextual dialogue. The semantic and aesthetic functions of quotations are explored through examples from Uzbek and English literature. The study concludes that quotation serves as an important intertextual unit that enriches the semantic structure of a literary text and reflects cultural memory.

Keywords: quotation, intertextuality, literary text, dialogism, intertextual connection, semantics.

Badiiy matn tabiatini belgilovchi muhim xususiyatlardan biri uning boshqa matnlar bilan aloqadorligidir. Zamonaviy adabiyotshunoslik va tilshunoslikda bu hodisa intertekstuallik termini orqali izohlanadi. Intertekstuallik nazariyasiga koʻra, har qanday matn avval yaratilgan yoki mavjud boʻlgan boshqa matnlar bilan bevosita yoxud bilvosita munosabatda boʻladi. Shu sababli badiiy asarni alohida va mustaqil hodisa sifatida emas, balki umumiy madaniy va adabiy tizim tarkibidagi koʻp qatlamli matn sifatida oʻrganish zarurati yuzaga keladi. Matnlararo aloqani hosil qiluvchi vositalar orasida iqtibos eng faol va eng qadimiy intertekstual birliklardan biri hisoblanadi. Iqtibos badiiy matnga boshqa manbaga tegishli nutq unsurlarini olib kirish orqali uning semantik, estetik va pragmatik imkoniyatlarini kengaytiradi. U nafaqat muallif fikrini dalillash, balki obrazlilikni kuchaytirish, madaniy xotirani tiklash, tarixiy va diniy kontekst yaratish, shuningdek, muallif hamda oʻquvchi oʻrtasida intellektual dialog hosil qilish vazifalarini ham bajaradi. Shu jihatdan iqtibos badiiy tafakkurning muhim ifoda vositalaridan biri sifatida namoyon boʻladi. Iqtibos masalasi M. M. Baxtin, R. Yakobson, Z. G. Mints, H. Plet, N. A. Kuzmina

kabi olimlar tomonidan turli nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Ularning ilmiy qarashlarida iqtibos ko‘pincha “begona matnning o‘z matniga kiritilishi”, “nutq ichidagi nutq” yoki “dialogik birlik” sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilshunosligida ham intertekstuallik va iqtibos muammolari M. Yo‘ldoshev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, badiiy matn lingvopoetikasi bilan bog‘liq holda tahlil etilgan [4].

Mazkur maqolaning maqsadi iqtibosning intertekstual vosita sifatidagi mohiyatini yoritish, uning nazariy asoslari hamda badiiy matndagi funksiyalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida o‘zbek va ingliz adabiyotidan olingan misollar asosida iqtibosning semantik, pragmatik va estetik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, iqtiboslarning milliy-madaniy xususiyatlari ham qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

M. M. Baxtin iqtibosning dialogik xususiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. Olimning fikricha, har qanday matnda “begona so‘z” mavjud bo‘lib, aynan shu unsur matnning dialogik tabiatini yuzaga chiqaradi [1]. Agar begona so‘zning o‘zgaligi sezilmay qolsa, matn monologik xarakter kasb etadi. Demak, iqtibos matn ichida boshqa ovozning mavjudligini ta‘minlaydigan vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Tartu–Moskva semiotik maktabi vakillari ham iqtibosni “begona matnning o‘z matniga kiritilishi” deb talqin qiladilar. Z. G. Mints iqtibosni boshqa matn vakili sifatida qo‘llangan begona so‘z deb baholaydi [7]. G. Levinton esa iqtibos matn semantikasini manba matn bilan bog‘liq assotsiatsiyalar orqali kengaytirishini ta‘kidlaydi [6]. R. Yakobson iqtibosni “nutq ichidagi nutq” sifatida talqin qilib, uning metamatn funksiyasini ko‘rsatib beradi.

Tilshunoslikdagi qarashlarda ham iqtibos ko‘pincha begona nutq bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. A. N. Gvozdev muallif nutqiga boshqa shaxs nutqining kiritilishini begona nutq deb ataydi va badiiy asarlardagi iqtiboslarni shu hodisa tarkibida baholaydi [2]. B. S. Shvartskopf esa maqol, matal va qanotli iboralarni ham iqtibosning bir ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqadi.

Intertekstuallik nazariyasida iqtibos matnlararo bog‘liqlikni yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardan biri sanaladi. H. Plet intertekstual munosabatlarni “matnga murojaat” va “tizimga murojaat” kabi ikki turga ajratadi. Matnga murojaat boshqa matndan bevosita iqtibos olish bilan bog‘liq bo‘lsa, tizimga murojaat ma‘lum uslub, janr yoki til tizimining takrorlanishini anglatadi [9]. H. Plet iqtibosni oddiy ko‘chirma emas, balki yangi kontekstda yangi ma‘no hosil qiluvchi dinamik hodisa sifatida talqin qiladi. Chunki iqtibos bir matndan ikkinchi matnga o‘tganda avvalgi semantik yukini saqlab qolgan holda yangi ma‘no qatlamini ham yuzaga keltiradi. N. A. Kuzmina ham intertekstuallikni dinamik jarayon sifatida baholab, iqtibosni ma‘no hosil qiluvchi intertekstual birlik deb ta‘kidlaydi [5].

Iqtibosning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u matnning semantik maydonini kengaytiradi. Muallif iqtibosdan foydalanar ekan, o‘quvchini ma‘lum madaniy, tarixiy yoki diniy manbaga murojaat qilishga undaydi. Natijada matnning mazmuniy qatlamlari ko‘payib, uning estetik ta‘siri kuchayadi.

Badiiy matnda iqtiboslar turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Ular ochiq, yashirin yoki transformatsiyalashgan ko‘rinishda uchrashi mumkin. Ochiq iqtiboslarda manba aniq ko‘rsatiladi va matn o‘zgarishsiz keltiriladi. Yashirin iqtiboslarda esa manba to‘liq ko‘rsatilmaydi, biroq matn tarkibidagi ayrim belgilar orqali boshqa manbaga ishora qilinadi.

Iqtiboslar badiiy matnda bir qator funksiyalarni bajaradi. Avvalo, ular muallif fikrini dalillashga xizmat qiladi. Ayniqsa, diniy yoki tarixiy manbalardan olingan iqtiboslar matnning ishonchlik darajasini oshiradi. Bundan tashqari, iqtiboslar obrazlilik va ramziylikni kuchaytirib, badiiy matnning emotsional ta‘sirini oshiradi.

S. Moravski iqtiboslarning avtoritativ, erudit va ornamental funksiyalarini ajratadi. Avtoritativ iqtiboslar muqaddas yoki mashhur manbalarga tayanib, fikrning ishonchligini kuchaytiradi. Erudit funksiyadagi iqtiboslar muallifning bilim doirasini namoyon etsa, ornamental iqtiboslar matnning estetik bezagini ta‘minlaydi [8].

A. S. Grinshteyn iqtibosning personaj xarakterini ochish, yashirin ma‘no yaratish, ramziy qatlam hosil qilish va voqealar o‘rtasida bog‘lanish yuzaga keltirish kabi vazifalarini ko‘rsatadi [3]. Demak, iqtibos nafaqat semantik, balki poetik jihatdan ham muhim vosita hisoblanadi.

O‘zbek adabiyotida iqtiboslarning asosiy manbalari Qur‘oni karim, hadis, maqol-matal, mumtoz adabiyot va folklor matnlari hisoblanadi. Ayniqsa, didaktik ruhdagi asarlarda diniy va xalqona iqtiboslar keng qo‘llanadi.

Anda Ko‘rqush aydi: — “Ey besabr, bu hadis ma‘nisidin bexabarmusanki: “Taanniy rahmondin va ta‘jil shaytondin”. Sen o‘z yarog‘ingni qilguncha sabr qilsang, xo‘bdur” [12].

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida “Taanniy rahmondin va ta‘jil shaytondin” hadisi iqtibos sifatida qo‘llanadi. Ushbu hadis sabrning ijobiy, shoshqaloqlikning esa salbiy sifat ekanini ta‘kidlashga

xizmat qiladi. Muallif hadis orqali asarning axloqiy-didaktik mazmunini kuchaytiradi.

“Miftoh ul-adl” asaridagi laklak haqidagi hikoya ham intertekstual iqtibosning yorqin namunasi hisoblanadi. Rivoyat orqali qozining xiyonati va adolatsizligi ramziy tarzda ochib beriladi. Laklak obrazi muttaham amaldor timsolida, ilonlar esa mazlum xalq ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu esa iqtibosning ramziylik va obrazlilik funksiyasini namoyon etadi.

Derlar: jon sog' bo'lsa, jahon topilgay,
Bir parcha yer, parcha osmon topilgay,
Lekin qayda sendek jonon topilgay,
Ketar bo'ldim o'zingdan bir so'rolmay...

Muhammad Yusuf she'riyatida ham xalq maqollarining iqtibos sifatida qo'llanishi kuzatiladi. “Jon sog' bo'lsa jahon topilgay” maqoli muallif fikrining xalq donishmandligi bilan uyg'unlashgan holda ifodalanishiga xizmat qilgan.

Ingliz adabiyotida Bibliyaviy iqtiboslar eng faol intertekstual vositalardan biri sanaladi. Bibliya ingliz madaniyatida muhim o'rin tutgani sababli badiiy asarlarda undan keng foydalaniladi.

“Well-a-well, man that is born of woman is of few days and full of trouble, as the Scripture says, and I reckon it's so. He'll play hookey this evening, and I'll just be obleeged to make him work tomorrow, to punish him” [10].

Mark Tvenning “Tom Sawyerning sarguzashtlari” romanida Aunt Polly nutqida Bibliyadan olingan “Spare the rod and spoil the child” iborasi qo'llanadi. Ushbu iqtibos tarbiya haqidagi diniy qarashlarni ifodalab, personajning ichki ruhiy holatini ochishga xizmat qiladi.

Roman davomida “Man that is born of woman is of few days and full of trouble” kabi Bibliyaviy iqtiboslar ham uchraydi. Bu iqtibos inson hayotining qiyinchiliklarga boy ekanini ta'kidlab, matnning emotsional va falsafiy ta'sirini kuchaytiradi [11].

Mark Tvenning “Life on the Mississippi” asarida esa gazetadan keltirilgan iqtiboslar voqelikni tarixiy va ijtimoiy kontekst bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Bu holat iqtibosning hujjatlilik va realizm yaratish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

“But the basin of the Mississippi is the Body of the Nation...
As a dwelling-place for civilized man it is by far the first upon our globe.”
— *Editor's Table, Harper's Magazine*, February, 1861.

Xulosa qilib aytganda, iqtibos badiiy matnda intertekstual aloqani yuzaga keltiruvchi muhim lingvopoetik vositalardan biridir. U matn tarkibiga boshqa manbaga tegishli nutq unsurlarini olib kirish orqali yangi semantik, pragmatik va estetik qatlam hosil qiladi. Iqtibos yordamida muallif o'z fikrini dalillaydi, matnning ta'sirchanligini oshiradi, madaniy va tarixiy xotirani tiklaydi hamda o'quvchi bilan intellektual dialog o'rnatadi. Shuningdek, o'zbek va ingliz adabiyoti misolida iqtiboslarning funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Har ikki adabiy an'anada ham iqtiboslar badiiy matnning semantik qatlamini boyitish, qahramon xarakterini ochish, ramziylik yaratish va muallif g'oyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. — Москва: Искусство, 1979. — 424 с.
2. Гвоздев А.Н. Очерки по стилистике русского языка. — Москва, 1955. — 463 с.
3. Гринштейн А.С. Функции цитат и аллюзий в поэзии Т. Элиота. — Москва, 1999. — 106 с.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: filol. fan. d-ri ... diss. — Toshkent, 2009. — 286 b.
5. Кузьмина Н.А. Интертекст и его роль в процессах эволюции поэтического языка: монография. — Екатеринбург–Омск, 1999. — 268 с.
6. Левинтон Г. К проблеме литературной цитации // Материалы XXIV научной студенческой конференции. — Тарту, 1971. — С. 51–54.
7. Минц З.Г. Функция реминисценций в поэтике А. Блока. — Тарту, 1973. — 312 с.
8. Morawski S. The Aesthetic Views of Marx and Engels // The Journal of Aesthetics and Art Criticism. — 1970. — Vol. 28. — № 3. — P. 301–314.
9. Plett H.F. The Poetics of Quotation // From Verbal Constitution to Symbolic Meaning. — Hamburg: Helmut Buske Verlag, 1988. — P. 313–334.
10. Twain M. The Adventures of Tom Sawyer. — New York: Harper & Brothers, 1876. — P. 5.
11. Twain M. Life on the Mississippi. — Boston: James R. Osgood and Company, 1883. — P. 11.
12. Gulxaniy. Zarbulmasal. — Toshkent: G'afur G'ulom, 1980.